

Journal of
**Natural
science**

**No5
2021**

<http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц.</p> <p>Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.2. Шылова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор7. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор8. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц9. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.10. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.11. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф12. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц13. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.14. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц15. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.16. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)17. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц18. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)19. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц20. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

SHIFOBAXSH DARAXTLAR

Ikromova Yulduzoy Erkin qizi- o`qituvchi
Oblaqulova Maxliyo Nasriddin qizi- 2 – bosqich talabasi
Haydarova Mohichehra Davron qizi- 2 – bosqich talabasi

**Jizzax Davlat Pedagogika instituti,
Samarqand Davlat Universiteti.**

Annotatsiya. Bizni o`rab turgan yashil olam bizni tashqi muhitning zararli omillaridan himoya qilish bilan birga dorivorlik xususiyatiga ham ega ekanligini ko`pchiligimizga ma`lum emas. Ular ekologiyani toza kislorodga boyitish bilan bir qatorda ko`plab kasalliklarni davolashda qo`llaniladigan kimyoviy murakkab tarkibga ham egadir. Bunday daraxtlarga qayin, eman, qarag`ay, araliya, juka, kabilar misol bo`ladi.

Kalit so`zlar: daraxt, dorivor, tabiiy, qayin, eman, araliya, shifo, efir, moy, tarkib, ekma, massa, iste`mol, tibbiyot, urug`, poya, foydali.

O`simlik dunyosi inson sog`lig`ini saqlovchi asosiy vosita sifatida unga xizmat qilib kelmoqda. Odamlar ovqat uchun o`simlik mevasi, ildizi, bargi va gullarini yig`ib yurganlarida, ba`zilarini og`riqni qoldiruvchi, oqib turgan qonni to`xtatuvchi, yaralarni da`volovchi ta`sirlari borligini, ya`ni dorivor ekanligini sezganlar va ulardan keyinchalik shifobaxsh vosita sifatida foydalanganlar. Ularning ko`pchiligini bundan uch yarim ming yil avval Misr shifokorlari qo`llaganlar va shu vaqtgacha bu o`simliklar o`zining dorivorlik ahamiyatini yo`qotmagan. Hunday o`simliklardan ko`pchiligi daraxt hayotiy shakliga mansub.

Oq qayin – Qayindoshlar (*Betulacea*) oilasiga mansub, balandligi 10–12 m ga yetadigan daraxt. Shoxlari pastga qarab egilgan (osilgan), qizil–qo`ng`ir rangli. Bargi oddiy, bandli, romb yoki yuraksimon, chetlari qo`sh tishli, ketma–ket joylashgan. Gullari bir jinsli, kuchalada o`rnashgan. Mevasi yong`oqcha.

O`zbekistonning G`arbiy Tyanshan qismida suv bo`ylarida tarqalgan. Chet ellarda, ayniqsa Qozog`istonning tog`li, suvga yaqin hududlarida ko`p o`sadi.

Tibbiyotda qayin turlarining kurtagi va barglaridan foydalaniladi. Daraxt kurtaklari erta bahorda, hali ular ochilmagan vaqtda shoxlari bilan qirqib olinadi va salqinroq yerda (ochilib ketmasligi uchun) quritiladi. Barglari hidli va yopishqoq bo`lgan vaqtda, may oyida (qayin gullaganida) yig`iladi va soya yerda quritiladi. Qurigan mahsulotlar qog`oz yoki ip qop va xaltalarda yo yashiklarda quruq, toza, salqin va havo almashinib turadigan joylarda saqlanadi.

Xalq tabobatida (tibbiyotda ham) qayin shirasi va qatroni – qora moyidan ham foydalaniladi. Qayin shirasi erta bahorda daraxt po`stlog`ini tilib, qatroni esa daraxtni quruq haydab olinadi.

Qayin turlari kurtagining tarkibida 3,5–8 % efir moyi, 3 % saponinlar, flavonoidlar, S vitamini, smola, oshlovchi moddalar bo`ladi. Barglari ham biologik faol

moddalarga boy. Ular tarkibida 0,85 % gacha efir moyi, 2500 mg % gacha C vitamini, 3,2 % gacha saponinlar, flavonoidlar (giperozid, kversetin, apigenin, kempferol va boshqalar), kislotalar, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Qayin kurtaklari va barglarining asosiy ta'sir qiluvchi biologik faol moddalari ular tarkibidagi efir moyi, flavonoidlar va saponinlar hisoblanadi.

Tibbiyotda qayin daraxtining kurtagi, bargi, qora moyi (qatroni) va shirasidan foydalaniladi.

Qayin daraxtining kurtagi va bargi tarkibida C vitamini, flavonoidlar, efir moyi, saponinlar va boshqa birikmalar mavjud. Daraxt shirasi qandlar, olma hamda turli aromatik kislotalar va boshqa birikmalarga boy.

Xalq tabobatida qayin bargidan tayyorlangan damlama siydik va o't haydovchi dori sifatida qo'llanadi. Kurtak damlamasi va nastoykasi turli teri kasalliklarida hamda yomon bituvchi yaralar, gush (ekzema)ni davolashda qo'llanadi. Shuningdek, damlama va nastoyka me'da og'rig'i, shamollash kasalliklarida hamda siydik haydovchi dori sifatida qo'llanadi. Bod kasalligida va bo'g'imlar og'riganda nastoyka og'rigan joyga surtiladi. Chunki uning tarkibidagi moddalar to'qima bitishi tezlashtiradi, mahalliy to'qimalarni ta'sirlaydi va yallig'lanishga qarshi ta'sir etadi.

Daraxt shirasi kamqonlikda va bemor quvvatsizlanib qolganda darmon beruvchi hamda yaralarni davolovchi dori sifatida buyuriladi.

Qayin daraxtining qora moyi (qatroni) tibbiyotda yaralarni davolashda qo'llanadigan *Vishnevskiy* surtmasi hamda qo'tir, temiratki va boshqa teri kasalliklarini davolaydigan *Vilkinson* surtmasi tarkibiga kiradi.

Baland (Manchjuriya) araliya – Araliyadoshlar (*Araliaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 5 m ga yetadigan, tanasi tikanlar bilan qoplangan daraxt. Barglari murakkab, yirik 2–3 karra patsimon bo'lingan, uzunligi 1 m ga yetadi. Gullari murakkab ro'vakka to'plangan. Gulkosabargi va gultojbargi 5 tadan, gultojisi sariq, oq rangli. Mevasi sharsimon, ko'k–qora rangli, 5 danakli, seret va sershira xo'l meva.

Iyul–avgust oylarida gullaydi, mevasi oktyabrda yetiladi.

Chet ellarda o'rmonlarda o'sadi.

Tibbiyotda araliyaning ildizidan foydalaniladi. Mahsulot sifatida yo'g'onligi (diametri) 1 – 3 sm li ildizlar (bundan yo'g'on va ingichka ildizlar yig'ilmaydi) bahorda (aprel–may oylarida) kovlab olinadi va ular tuproqdan tozalanadi, ichi qoraygan, chirigan hamda yo'g'on ildizlar qirqib tashlanadi, qolganini 8 sm gacha uzunlikda kesib, ochiq havoda – quyosh nuri ostida yoki quritgichda 60° C quritiladi.

Qurigan mahsulot qog'oz qopda quyosh nuri tushmaydigan soya, quruq, toza va havo kirib chiqib turadigan joyda saqlanadi.

Ildiz tarkibida triterpen saponinlar (A, B, C aralozidlar va boshqalar), efir moyi, aralin alkaloidi va boshqa birikmalar bo'ladi.

Araliya ildizining asosiy ta'sir etuvchi birikmasi A, B, C aralozidlar va boshqa triterpen saponinlar hisoblanadi.

Araliya ildizidan tayyorlangan fitopreparatlar (nastoyka va saparal) markaziy nerv sistemasiga jonlantiruvchi ta'sir etib, organizmning umumiy tonusini oshiradi, kuch–quvvat bag'ishlaydi, yurak–qon tomir faoliyatini oshiradi, modda almashinuvini yaxshilaydi, uyquni kamaytiradi.

Davlat farmakopeyasining ruxsatiga binoan tibbiyotda jo'kaning ikki turidan foydalaniladi.

Mayda barg' jo'ka – Jo'kadoshlar (*Tiliaceae*) oilasiga mansub keng shox–shabbali daraxt. Shoxlari qizil. Barglari oddiy, bandi 2,5 – 4,5 sm uzunlikda, yaprog'i yumaloq, asosi yuraksimon, uzunligi 5–8 sm, eni 6–9 sm, ustki tomoni tuksiz. To'pguli 8–15 gulli. Gullari sariq, 5 bo'lakli, yarim soyabonga joylashgan. Yarim soyabonning bandi guloldi bargchasining asosiy tomiri bilan birlashgan. Mevasining uzunligi 10–12 mm, yumaloq noaniq qobirg'ali, tukli yong'oqcha.

Iyunda gullaydi, mevasi sentyabrda pishib yetiladi.

Chet ellarda tarqalgan. O'zbekistonda manzarali o'simlik sifatida ekiladi.

Yirik bargli juka – keng va yumaloq shox–shabbali daraxt. Shoxlari sariq yoki kul rang–qo'ng'irdan qizg'ishgacha. Barglari bandli, ketma–ket joylashgan, yaprog'i yumaloq yoki keng tuxumsimon, o'tkir uchli, asosi har xil ko'rinishda, ikkala tomoni ham tukli. To'pguli 2–5 gulli. Mevasi yumaloq–tuxumsimon, aniq besh qobirg'ali, tukli yong'oqcha.

Bu tur ham O'zbekistonda manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi.

Tibbiyotda jo'ka turlarining gulidan foydalaniladi. O'simlik gullagan vaqtda (jo'ka ikki hafta davomida gullaydi) to'pguli, guloldi bargchalari bilan birga tokqaychi yordamida qirqib olinadi va soya yerda quritiladi. Quritilgan mahsulot qog'oz yoki ip qoplarda va xaltalarda soya, quruq, toza va havo almashinib turadigan joyda saqlanadi.

Jo'ka o'simligining guli tarkibida efir moyi, flavonoidlar, shilliq, oshlovchi va boshqa moddalar bo'ladi. Ushbu moddalar asosiy ta'sir ko'rsatuvchi shifobaxsh birikmalar hisoblanadi.

Tabobatda jo'ka gulidan tayyorlangan damlama shamollashda terlatuvchi, yo'talni qoldiruvchi vosita sifatida va tomoq og'rig'ida chayish uchun beriladi. Jo'ka turlarining gulidan tayyorlangan preparatlar, tarkibidagi kimyoviy birikmalar hisobiga (efir moylari, flavonoidlar, saponinlar va boshqalar), shamollash oqibatidagi kasalliklarda (angina, bronxit va boshqalar) terlatuvchi, isitma tushiruvchi, mikroblarga qarshi dorivor vosita sifatida ishlatiladi. Bundan tashqari, damlama ichib turilganda siydik ajralishi, me'da sekretsiyasi ko'payadi, markaziy asab sistemasini tinchlantiradi.

Jo'kaning gullari terlatuvchi yig'malar tarkibiga kiradi.

Oddiy eman – Emandoshlar – Qoraqayindoshlar (*Fagaceae*) oilasiga mansub yirik, keng shox–shabbali, bir uyli daraxt. Shoxlari qizg'ish–qo'ng'ir. Bargi oddiy, qisqa bandli, yaprog'i qalin, mustahkam, teskari tuxumsimon yoki teskari tuxumsimon–nashtarsimon, uzunligi 6–12 sm, eni 3 – 8 sm, patsimon bo'lakli. Changchi gullari uzun kuchalada o'rnavgan, urug'chi gullari yakka yoki 2 ta va bir

nechtadan bo‘lib, qisqa yoki uzun bandlarda joylashgan. Mevasi yong‘oqcha, uzunligi 2 – 3,5 sm, qo‘ng‘ir rangli.

Aprel–may oylarida gullab, mevasi sentyabr–oktyabr oylarida pishib yetiladi.

O‘zbekistonda manzarali va o‘rmon hosil qiluvchi daraxt sifatida ekiladi. Chet ellarda keng tarqalgan.

Qoya emani, bandsiz gulli eman – bu tur oddiy emandan mevasining bandsiz, bargining uzunroq bandli bo‘lishi bilan farq qiladi. O‘zbekistonda uchramaydi.

Tibbiyotda eman turlarining po‘stlog‘idan foydalaniladi. Eman daraxti po‘stlog‘i bahorda, daraxt tanasida suv yura boshlagan paytda, maxsus ajratilgan daraxtlardan (usti tekis, yorilmagan, yaltiroq) yosh po‘stloqlar shilib olinadi va ochiq havoda – quyoshda quritiladi.

Qurigan po‘stloqlar qog‘oz yoki ip qop va xaltalarda quruq, toza, havo almashinib turadigan joylarda saqlanadi.

Eman turlarining po‘stlog‘i tarkibida 7–20% oshlovchi moddalar, flavonoidlar, gallat, ellag kislotalar va boshqa moddalar bo‘ladi.

Po‘stloqning asosiy ta’sir qiluvchi shifobaxsh (moddalari) birikmalari uning tarkibidagi oshlovchi moddalar hisoblanadi.

Ibn Sino eman mevasi bilan turli kasalliklarni, shu jumladan, o‘pka kasalliklarini davolagan.

Xalq tabobatida eman po‘stlog‘idan tayyorlangan qaynatma og‘iz, tomoq yallig‘lanishida va boshqa kasalliklarda ishlatiladi.

Tibbiyotda esa eman po‘stlog‘idan tayyorlangan qaynatma burishtiruvchi va antiseptik (mikroblarga qarshi) dori sifatida og‘iz, tomoq shilliq pardasining yallig‘lanishida (stomatit, laringit va boshqalar) og‘iz va tomoqni chayish uchun beriladi. Eman turlarining po‘stlog‘i og‘iz va tomoqni chayish uchun qo‘llanadigan yig‘malar – choylar tarkibiga kiradi.

Demak, yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, biz kundalik hayotda ko‘plab uchratadigan, hatto e’tibor bermaydigan, asosan soyasidan foydalanadigan daraxtlar ham juda yuqori shifobaxshlik xususiyatlariga ega ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nabiev M. Sabzavot, rezavor mevalar va ziravorlar xosiyati. – T.: “Mehnat”, 1990. – 155 b.
2. Xojimatov Q. Efir moyli o‘simliklar. – T.: “Fan”, 1971.– 30 b.
3. Y.E.Ikromova “Dorivor o‘simliklarning murakkab tarkibi” XXI asrda biologiyaning rivojlanish istiqbollari va ularda innovatsiyalarning ahamiyati. Jizzax 2021.
4. Y.E.Ikromova “O‘simliklarning dorivorlik xususiyatlari, murakkab tarkibi va qo‘llanilishi” Obrazovanie I nauka v XXI veke. Vipusk 18 (tom 3) SENTABR.2021

5. Y.E.Ikromova “Topinambur – istiqbolli dorivor o‘simlik” “uzliksiz bilimlendiriu sistemasında aralıqtan o‘stıtyudys integratsiyası” atamasında otkeriletugyn xalıkaralıq ilimiy–teoriyalıq konferensiya. Nukus 2021.

6. Y.E.Ikromova “Dorivor o‘simliklarni himoya qilish” XXI asrda biologiyaning rivojlanish istiqbollari va ularda innovatsiyalarning ahamiyati. Jizzax 2021.